

ILM YULDUZLARI HECH QACHON SO'NMAYDI

Mallaxonov Samandar Qahramon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universitetining III bosqich talabasi

[*mallaxonovsamandar50@gmail.com*](mailto:mallaxonovsamandar50@gmail.com)

Hayotlarining so'nggi yillarigacha Toshkent davlat yuridik instituti "Fuqarolik protsessi" kafedrasini boshqarib keldilar. Hatto betob bo'lgan paytlarida ham shu dargoh hayoti haqidagi o'y-xayollar bilan yashadilar va oxirgi kunlargaacha: "Sal o'zimga kelib olay, institutga boraman, ishga boraman", derdilar.

*(Ustoz Sh.Sh.Shorametovning farzandi
Yuridik fanlar do'ktori U.Sh.Shoraxmetova)*

Ilm dargohi bamisoli poyonsiz va sarhadsiz koinotga o'xshaydi. U yerda yulduz ko'p, sayyora ko'p. Lekin shunday yulduzlar borki, ular taratayotgan nur yillar, hatto asrlar o'tsa ham aslo so'nmaydi. Balki, koinotning eng zulmatga cho'mgan nuqtalariga yetib borib, u yerlarni ham yorug'likka to'ldiradi. Zamonaviy o'zbek huquqshunosligining ustunlaridan biri bo'lgan, milliy sivilistikamizning "muzyorariga" aylangan, shogirdlari har doim yuzlarida tabassum, qalblarida faxr bilan xotirlaydigan, hayotining so'nggi damlarigacha yuridik institutga borishni astoydil istagan inson Ustoz Shoraxmetov Shoakbar Shorustamovich ham ana shunday yulduzlardan biri edi. Ularning yulduz kabi tarqatayotgan ilm nurlari bugungi kunga qadar yosh avlodni ko'zlarida, qalblarida, kasblariga bo'lgan sadoqatlarida, yangi bilimlarni egallashdagi tirishqoqliklarida o'z aksini ko'rsatib kelmoqda. Agar ilm koinotida yulduz bo'lishning mohiyati bormi desalar, javob shubhasiz mana bunday bo'lar edi: "Ha, bunday insonlar – yorug'lik taratuvchi yulduzlardir. Ularning nuri zamon chegarasidan o'tib, kelajak avlodlarni ma'rifat yo'liga boshlaydi".

Shoraxmetov Shoakbar Shorustamovich 1931-yil 26-avgust kuni hozirgi Qozog'iston Respublikasining Sirdaryo daryosidan uncha uzoq bo'lmagan so'lim, bahova shahri Chimkentda xizmatchi oilasida tavallud topgan. Otalari – Shorustam ota oddiy xizmatchi bo'lganlar. 1943-yil ayni ikkinchi jahon urushining qizg'in pallasida nemis fashistlari bilan bo'lgan janglarda og'ir kasallikdan vafot etganlar. Onalari – Tojixon aya yolg'iz ayol bo'lishlariga qarmasdan to'rt o'g'illarini o'zlari katta qildilar, ularga ta'lim-tarbiya berdilar. Ushbu to'rt farzandning eng kenjasi Ustoz Shoakbar Shorustamovich edilar. Ustozning bolalik vaqtlari ayni ikkinchi jahon urushining sovuq shamollari kezib yurgan, ocharchilik, mamlakat iqtisodiyotini to'laligicha urushga moslashtirish kabi og'ir davrga to'g'ri keldi. Ehtimol, aynan shu faktorlar Ustozning mustahkam iroda sohibi bo'lib yetishishlarida muhim rol o'ynagandir.

Ustozning ilm olishga bo'lgan ishtiyoqi maktab kezlaridanoq barchani hayratga solgan edi. Zamondoshlarining xotirlashicha bir kuni qishda tizza borobar qor yog'adi, havo minus 30 gradusdan ortiq sovuq. Mana shunday ayozli kunda ham Ustoz Shoakbar Shorustamovich egnilari va oyoqlariga qalin kiyimlari bo'lmasa ham maktabdagi dars mashg'ulotlariga borgan ekanlar. Ustoz o'z oldiga "yurist" bo'lish maqsadini qo'yishlariga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatgani Ustozning hamkasblari tomonidan xotirlanadi. Jumladan, Ustoz yettinchi sinfda o'qib yurgan vaqtlarida, ularning akalari bo'lmish Shopo'lat akani g'araz niyatli insonlarning yolg'on ko'ratmasi bilan Chimkent shahar militsiya xodimlari tomonidan ikki kun mobaynidan asossiz ushlab turilishi edi. Mana shunday adolatsizlikning shohidi bo'lishlari ularning bola qalblarida chuqur iz qoldirgan bo'lsa ajab emas. Bundan tashqari, Ustoz Shoakbar Shorustamovichning Adhambek Rustambekov ismli qo'shnilari bo'ladi. Bu kishi Toshkentda tahsil olayotgan yosh yuristlardan bir edi. Adhambek Rustambekov yuridik sohada o'qishni tamomlab, hozirgi Tojikiston Respublikasining Dushanbe shahridagi prokuratura organlarida mas'ul lavozimlarda ishlashni boshlaydi. Yosh Shoakbar Shorustamovichning hayol chizgilarida prokuratura xodimi maxsus "forma"si o'zgacha ranglar bilan aks etgan bo'lsa kerak. Mana shunday ajoyib bolalik taassurotlari bilan Ustoz 1950-yil mahalliy maktabni tamomlashlari bilanoq Toshkent shahriga o'tlanadilar. Ustoz Toshkentga kelib O'rta Osiyo Davlat Universiteti (CAFY) yuridik fakultetiga hujjatlarini topshiradilar. U vaqtlari huquqshunoslik yo'nalishi uchun juda kam atigi 25 ta joy ajratilgan bo'lib, bir o'ringa 12 nafar nomzod to'g'ri kelar edi. Quvonarlisi, o'sha yilgi 25 nafar talabalarning qatorida Shoakbar Shorustamovich ham bor edilar. Ustoz o'z hayotlaridagi ijobiy burilishlardan biri sifatida Universitetga qabul qilinganliklari bo'lganligini doim qalblarida saqlab yurgan ekanlar.

Shunday qilib Ustoz Shoakbar Shorustamovich hayot kitoblarida yangi talabalik deb nomlangan sahifa ochildi. Bu sahifa sho'xliklar, o'ziga xos qiyinchiliklar, yangi tanishlar va ustozlar tanbehlariga boy hamda faqatgina tabassumlar bilan yodga olinadigan sahifa edi. Ustozga birinchi kursning o'zidayoq maxsus huquqiy fanlar o'qitila boshlandi. Malik Hakimov – Davlar huquq nazariyasi fanidan; Holida Samatova – Xorijiy mamlakatlarning davlat huquqi tari fanidan; Fuad Bakirov – Sud tuzilishi fanidan; Otaboy Eshonov – Ittifoq Davlat huquqi tarixi fanidan Shoakbar Shorustamovichga saboq berishgan. 1951-yilgi Ittifoq Hukumatining qarori bilan O'rta Osiya Davlat Universitetining yuridik fakulteti tugatilib, uning o'rnida Toshkent davlat yuridik instituti tashkil etildi. Ustozning keying talabalik davri Toshkent davlat yuridik instituti bilan chambarchas bog'landi.



(Ustozning yoshlik yillari)

Ustoz Shoakbar Shorustamovich talabalik yillarida faqatgina o'qish bilan cheklanib qolmasdan, Toshkent shahrida talabalar o'rtasida o'tkaziladigan turli xil sport musobaqalarida ham faol ishtirok etar edilar. Gimnastika yo'nalishida esa ko'plab marotaba chempionlikni qo'lga kiritganlar. O'zlarining baquvvat ko'rinishlari,

uzun bo'ylari bo'lganligi sababli ularni boshqa talabalar Amerikalik sportchi Frank Gutga o'xshatishar va ushbu sportchi nomi bilan chaqirishar edi. Shuningdek, Ustoz Shoakbar Shorustamovich universitetda bo'ladigan ilmiy anjumanlarda ham faol bo'lganlar hamda doimiy ravishda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etib kelganlar. Ustozda faqatgina o'zlariga xos bo'lgan tirishqoqlikni, bilimlarni egallashga bo'lgan ishtiyoqni ko'ra olgan hamda Shoakbar Shorustamovich qatnashgan ilmiy anjunalarda ishtirok etib ularni yaqinda o'rgangan o'sha davr sivilist olimlari Fuqarolik huquqi fanlari bo'yicha kafedra mudiri E.O.Dombrovskiy va Y.E.Pesinlar Shoakbar Shorustamovich kafedrada qolishga va ilmiy-pedagogik ishlar bilan shug'ullanishga taklif etishgan. Biroq Ustoz o'z bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlash niyatida ekanliklarini aytib bu taklifni vaqtincha rad etganlar.

Talabalik yillari o'z nihoyasiga yetganidan so'ng Ustoz Namangan viloyati Zadaryo (hozirgi Mingbuloq) tumani ijroya komitetiga yuboriladi. U yerda mas'ul kotib sifatida ish boshlaydilar. Keyinchalik Ustoz O'zbekiston Komsomol Markaziy komitetining buyro qaroriga ko'ra, Zadaro tuman komsomol komitetining birinchi sekretari lavozimiga saylandi. Ustoz Shoakbar Shorustamovichning hayotlaridagi yana bir muhim yil sifatida biz 1957-yil sentabrni keltira olamiz. Shu yili Ustoz Zadaryo tuman xalq sudiga sudya etib saylandi. Bu mas'uliyatli lavozimda Ustoz 1961-yilga qadar faoliyat yuritdi. Shubhasiz, bu o'tgan to'rt yil Shoakbar Shorustamovichga katta hayot tajribalari tuhfa etgan deb ayta olamiz. Sir emaski, sudya sifatida ishlash degan insonlar taqdiri, ularning hayoti bilan ishlash deganidir. Har bir qabul qilayotgan qarori qaysidir insoning butun boshli hayotiga ta'sir ko'rsata olishini o'ylab ishlash, albatta, yetuk bilim va tajribani talab qiladi. E'tiborli jihati shundaki, Shoakbar Shorustamovichning sudya sifatida qabul qilgan qarorlarining birontasi yuqori turuvchi sudlar tomonidan bekor qilinmagan, aksincha huquqni qo'llash amaliyotida namuna sifatida tadbiq qilingan ekan. Bularning barchasi ularning nafaqat ilmiy salohiyatlarini, balki har bir ishga alohida e'tibor bilan yondashganliklaridan dalolat beradi. Sud tizimidagi mehnatlari Oliy sud rahbariyati tomonidan e'tiborsiz qoldirilmaydi hamda 1959-yilda Oliy sudning qarori bilan **Ustoz ismlari yozilgan soat bilan taqdirlandilar.**

1957 йил 15 декабрь—

Ўзбекистон ССР халқ судларига
сайлов нуни
ҲАММА САЙЛОВГА!

Сайловчи ўртоқлар!

Шоакбар ШОРАҲМЕТОВ 1931 йилда Жанубий Қозоғистон областининг Чимкент шаҳрида ишчи оиласида туғилган. У 1957 йилдан бери КПСС аъзоси. Ўртоқ ШОРАҲМЕТОВ 1950 йилда ўрта мактабни тамомлайди. 1951 йилда Тошкент юридик институтига ўқишга кириб, 1954 йилда уни тамомлайди. Ўртоқ ШОРАҲМЕТОВ 1954 йилдан бери партия ва совет ташиқлотларида ишлайди. 1956 йилдан бери Задарё район ижроия комитетида масъул секретарлик вазифасида ишлайди.

1954 йилда халқ судларига бўлган сайловда Задарё район халқ судига халқ маслаҳатчиси бўлиб сайланади.

Ўртоқ ШОРАҲМЕТОВ халқ маслаҳатчиси бўлиш билан бирликда, Задарё район халқ судьясининг муовинлиги вазифасида ҳам ишлаб келди. Ўртоқ ШОРАҲМЕТОВ халқ судининг муовинлиги вазифасида ишлаш даврида ўзининг соф виждонли ходим эканлигини кўрсатди. Ўртоқ ШОРАҲМЕТОВ жамоат ишида актив қатнашди ва меҳнаткашлар олдида системали равишда лекция ўқиб туради. Ўртоқ Шоакбар Шорустамович Шораҳметов Ўзбекистон ССР халқ судларга сайлов ўтказувчи Задарё район 7-сайлов округи бўйича халқ судьялигига кандидат қилиб рўйхатга олинди.

Коммунистлар ва партиясизлар блокнинг кандидати ўртоқ Шоакбар Шорустамович Шораҳметов учун овоз берайлик.



15 декабря 1957 года

все на выборы народных судов
Узбекской ССР!

Товарищи избиратели!

Товарищ ШОРАХМЕТОВ Шаакбар Шарустамович родился в 1931 году в городе Чимкенте Южно-Казахстанской области, в семье рабочего. Член КПСС с марта 1957 года.

Тов. Шарахметов в 1951 году поступил в Ташкентский юридический институт и окончил его в 1954 году. Тов. Шарахметов с 1954 года работает в партийно-советских организациях, с октября 1956 года — ответственным секретарем Задарьинского райисполкома. В 1954 году был избран народным заседателем нарсуда Задарьинского района, одновременно является заместителем народного судьи Задарьинского района. При выполнении своих обязанностей проявил себя честным и добросовестным работником.

Тов. Шарахметов активно участвует в общественной и политической жизни района, систематически проводит лекции среди населения на правовые темы.

Тов. Шарахметов Шаакбар Шарустамович зарегистрирован кандидатом в народные судьи по 5-му Задарьинскому избирательному округу по выборам народных судов Узбекской ССР.

Отдадим свои голоса за кандидата блока коммунистов и беспартийных тов. Шарахметова Шаакбара Шарустамовича!

(Xalq sudyalari saylovi uchun nomzodlari)

Ustoz Shoakbar Shorustamovich Zadaryo tuman rahbariyati va boshqa bir qancha insonlar yordami hamda tavsiyasi bilan 1959-yil sentabr oyida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi falsafa va huquq institutining yo'llanmasi bilan Moskvadagi Butun Ittifoq yuridik fanlar institutiga (ВИЮН) aspiranturani o'qish uchun yuborildilar. Ustoz u yerda Ittifoqqa ma'lum va mashhur huquqshunos olimlar — E.A.Fleytshits, B.S.Antimonov, L.A.Lunts, D.S.Galkin, E.Pergament, S.Makoviskiy, O.Sadikovlar qo'lida tahsil oladilar. Ilmiy ishlarni sirdan o'qib bajarish mushkulligini to'g'ri anglagan Shoakbar Shorustamovich sudyalik lavozimidan voz kechadilar hamda Toshkent va Moskvadagi ajoyib insonlar yordami hamda maslahatlari bilan 1963-yil "O'zbekistonda ratsionalizatorlik takliflarini tashkil topishi, rivojlanishi va huquqiy tartibga solinishi haqida"gi mazvuda nomzodlik dissertatsiyasini nihoyasiga yetkazdilar. Ushbu dissertatsiyasini 1965-yilda muvaffaqiyatli himoya qildilar. Keyinchalik Ustoz respublika va Ittifoq darajasidagi bir qator muhim va mas'uliyatli lavozimlarda faoliyat yuritdilar. U yerda ham o'zlarining jonkuyarliklari, har muammoli masalaga o'z mustaqil fikrlari bilan yechim bera olishlari, zimmalari yuklatiladigan har bir mas'uliyatni to'g'ri anglagan holda harakat qilishlari bilan barcha hamkasblari va rahbariyati yodida qoldilar.

Nihoyat, Ustoz Shoakbar Shorustamovich 1967-yil sentabrda o'zlarining jonajon maskanlari Toshkent davlat yuridik institutiga qaytdilar va bu yerda "Fuqarolik protsessual huquqi" fanidan ma'ruza mashg'ulotlarini o'ta boshladilar. O'sha vaqtlari

institutda talabalar soni 3.5-4 ming nafarga qadar ko'paygan. Ayniqsa, bu talabalar ichida o'zbekzabon talabalarining ham ulushi ortib borayotgan edi. Lekin afsuski, o'zbek tilida yozilgan adabiyotlar juda oz edi. Amaldagi talabalarning sonidan kelib chiqilsa, adabiyotlar miqdori juda kichik miqdorda edi. Ustoz Shoakbar Shorustamovich mana shu holatni to'g'ri anglar edilar. Shu sababli ham Ustoz birinchi marotaba o'zbek tilida "Fuqarolik protsessual huquqi" fanidan darslik yaratish ishlarini boshladilar hamda 1980-yilda 25 bosma taboqdan iborat darslik talabalar ixtiyoriga yetkazildi. Hali o'zbek tili davlat tili maqomini olmagan vaqtlari bunday ishga qo'l urish haqiqatdan ham xalqimiz oldidagi buyuk bir xizmat edi.

Ustoz Shoakbar Shorustamovichning sud tizimi, ilmiy-pedagogik faoliyati hamda davlat organlaridagi xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib e'tirof etilib, 1983-yil mart oyida Oliy Sovet Prezidiumining Farmoniga asosan **"O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist"** faxriy unvoni bilan taqdirlandilar. E'tiborli jihat, hozirgi kunga kelib ham mazkur faxriy unvonga juda oz yuristlar erishgan bo'lib, Ustoz Shoakbar Shorustamovich ulardan dastlabki sohiblaridan edilar. Keyinchalik Ustoz Toshkent davlat yuridik institutining "Fuqarolik kafedarsi" mudiri sifatida faoliyat yurita boshlandilar. Bu mas'uliyatli lavozim hayot tajribasi bilan bir vaqtda yuqori ilm salohiyat ham talab qilishini bilan Shoakbar Shorustamovich 1989-yil ilmiy kengash a'zolarining qarori bilan professorlik ilmiy unvoni berildi. Bu qaror keyinchalik Moskva Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan ham tasdiqlandi. Ustoz 1995-yil 12-iyulda doktorlik dissertatsiyasining himoyasini o'tkazdilar hamda yuridik fanlar doktori faxriy ilm unvonga ega bo'ldilar. O'zbekiston mustaqilligining 10 yilligi munosabati bilan mamalakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimovning tegishli Farmoni bilan Ustoz Shoakbar Shorustamovich **"Menat shuhrati"** ordeni bilan taqdirlandilar.



(Ustoz hamkasblari davrasida)



(Ustoz shogirdlari davrasida)

Ustoz Shoakbar Shorustamovich tomonidan turli yillarda **73 ta ilmiy maqolalar**, **28 ta darsik**, **o'quv**, **o'quv-uslubiy qo'llanmalar** nashr etilgan. Ustoz tomonidan

2001-yilda biryo'la ikkita darslik: O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi va Xo'jalik protsessual huquqi darsliklari nashr etildi. O'sha kezlari TDYI ning Ilmiy kengashi yig'ilishlarini birida institut Rektori yuridik fanlar doktori, professor M.H.Rustamboev "bir yilda ikkita darslikni yozish va chop etish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi", - deb e'tirof etgan edilar. Ustoz **O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh** loyihalarini tayyorlashdan shaxsan boshchilik qilganlar.

Ustoz hamisha shogirdlar yodida

Darhaqiqat, Ustoz Shoakbar Shorustamovich har doim hamkasblari va shogirdlari yodida qolmoqdalar. Ushbu maqolani yozishdan oldin Ustoz haqida turli xil manbalarda ma'lumotlar qidirdim. Afsuski, yetuk olim, zabardast ustoz, jonkuyar rahbar, tashabbuskor inson Shoraxmetov Shoakbar Shorustamovich haqida ko'plab ma'lumotlarga duch keldim deb ayta olmayman. Ehtimol, Universitetimiz rahbariyati tashabbusi bilan joriy qilinayotgan stependiyalar Ustoz Shoakbar Shorustamovich hayotlari va ilmiy yo'llarini yanada kengroq o'rganilishiga zamin yaratar.

Ustoz Shoakbar Shorustamovich haqida yanada ko'proq ma'lumot olish maqsadida Ustozning farzadlari ham shogirdlari hozirda TDYU ning Fuqarolik huquqi kafedrasida o'qituvchisi yuridik fanlar doktori Umida Shoraxmetova Shoakbarovnaga bir qancha savollar bilan yuzlandim. Ustoz Umida Shoraxmetova dadajonlarini ko'zlari biroz yoshlangan holda, qalblarida iftixor va sog'inch aralash faqatgina otasini qattiq sog'ingan farzandning yuragidan chiqishi mumkin bo'lgan o'zgacha ohangda xotirladilar: "Dadajonim juda sokin, salobatli inson edilar. Ularning yonidan turgan, ular bilan suhbatlashgan har bir inson bu salobatni va sokinlikni osonlik bilan payqar edi. Ular hech kimga "sen" deb murojaat qilmas edilar. Ayniqsa, "Talabalarni "sizlash" kerak ularga "sen" deb gapirmaslik kerak. Ular borki, biz bormiz", - deb ko'p ta'kidlar edilar. Ko'p holatlarda talabalarga "Mullaka" deb gapirar edilar. Oilada esa tom ma'noda mehribon ota, g'amxo'r umr yo'ldosh edilar. Biz dadajonimning har bir so'zlarini bir qarashdan o'qib olar edik, hech qachon oilamizda "baland ohangda" gapirilmay edi. Dadam tabiatni, salqin ob-havoni juda xush ko'rar, shabada mayin esganda, havodan to'yib-to'yib nafas olib "oh-oh-oh" deb qo'yar edilar. Hovlidagi barcha yumushlarni – gullar, rayhonlar va hattoki pomidor, bodiring kabi sabzavotlarni ermak uchun ekib, yetishtirib va hosilini "o'zimizning dehqonchilik" deb qo'yardilar. Ushbu mashg'ulotlardan benihoya zavq olar edilar. Dadajonim yoshligimdan yaxshi o'qishni, o'qimishli bo'lib, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan inson bo'lib yetish lozimligini o'qtirar, o'zlari ham ko'p vaqtlarini xonalarida ilmiy izlanib maqolalar, darsliklar, o'quv qo'llnamalar yozish bilan o'tkazar edilar. Tong saharda ham, qorong'u tunda ham tinmay kitob o'qib yoki yozib o'tirardilar. Ayniqsa qish kunlarida

shunday ko'p o'tirib ijod qilganlaridan oyoqlari uvishib, harakatsizlikdan sovuq qotib qolar edi, keyin esa o'riblaridan turib jismoniy mashg'ulot bajarardilar, "oyoqlarimni chigali yozilsin" derdilar. Keyin esa qog'oz-qalam olib ilmni davom ettirardilar".





(Ustozning xonadonlari)

Ustoz haqida yana boshqa ma'lumotlarni bilish istagi bizni hozirda Toshkent davlat yuridik universitetining Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrası mudiri, professor, yuridik fanlar nomzodi Xabibullayev Davlatjon Yulchiboyevich huzurlariga boshlab keldi. Professor Davlatjon Yulchiboyevich Ustoz Shoakbar Shorustamovich haqida maqola yozayotganimizni eshitganlaridan so'ng tushlik vaqti bo'lishiga qaramasdan barcha ishlarini bir chetga surib qo'yib, o'z Ustozlari bo'lmish Shoakbar Shorustamovichni xotirlab ketdilar: "Avvalo, Shoakbar Shorustamovich haqida qancha gapirsam oz, ularning eng oxirgi shogirdlaridan birimiz. Ustoz meni Davlatali deb chaqirar edilar (*yuzlarida faqatgina shogirlarga xos tabassum bilan*) Ustozsiz institutimizdagi hech qaysi tadbir o'tmas edi. Ular so'zboshi bo'lib tadbirmizni ochib berar edilar. Kim so'zga chiqishini ham ular belgilab berar edilar. Bu jarayon ham oddiygina o'tmas edi. Ustoz so'zga chiqadigan insonni alohida ta'riflab chiqar edi. Men kabi yosh o'qituvchilar kim so'zga chiqar ekan? Menga so'z navbatini berib yubormas ekanlarmi deb xavotir bilan o'tirar edik. Domla o'zining bag'rikengligi, fidoiyligi bilan ajralib turardilar. Asossiz tanbeh bermasdilar, kechrimli inson edilar. Hatto, kasal bo'lishlariga qaramay himoyamda qatnashdilar, o'zlari bosh bo'ldilar. Men domlaning hayotlik chog'larida himoyaga chiqqan oxirgi

shogirlaridan bo'laman. Domlani izidan borib kam bo'lmadim, Ustozning oldida hamisha qarzodman, ularning xotirasi oldida doim ta'zimdaman", - deb o'z so'zlariga xotima qildilar.

O'zbekiston Respublikasi Favqullodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor Muzaffarjon Mamasiddiqov Ustoz Shoakbar Shorustamovichni Ustoz xotirasiga bag'ishlangan tadbirda o'z ustozlarini shunday xotirlagan edilar: "Men "Fuqarolik protsessi" kafedrasidagi eng yosh o'qituvchi edim. Qachonki bir maqola yozsam, go'yo katta ish qilib qo'ygan odamdek Ustozning xonalariga maqolamni tekshirib berishlarini so'rab borar edim. Ustozning hammaga ma'lum bir qizil ruchkalari bo'lar edi. O'sha ruchka bilan Ustoz maqolani har bir qatorini erinmasdan tekshirib chiqar edilar. Ularning tekshirishlaridan so'ng maqoladagi qizil yozuvlar singari bizning yuzimiz ham qizil bo'lar edi. Shunda Ustoz bizga dalda berib, "Mulla aka siz hech ham xafa bo'lmang. Hech kim bilib dunyoga kelmaydi. Siz yozishdan to'xtamang", - der edilar. Keyinchalik, Ustozning qimmatli o'gitlari tufayli maqolalarimizdagi qizil yozuvlar ham kamayib bordi", - deb o'z so'zlarini yakunladilar.

Ustoz Shoakbar Shorustamovichning bevosita rahbarliklarida tashkil etilgan va hzoirgi kunda "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquq" kafedrasida nomlanadigan va yetuk protsessualistlar maskaniga aylangan dargoh. Hozirgi kunga qadar Ustozning eng yaqin va iqtidorli shogirdlari tomonidan boshqarib kelinayotgani bizni juda quvontirdi. Hozirgi kunda ushbu kafedraga Ustozning shogirdlari professor Xabibullayev Davlatjon Yulchiboyevich boshchilik qilayotgan bo'lsa, 2010-2015-yillar mobaynida Ustoz Shoakbar Shorustamovichning yana bir eng yaqin shogirdi – yuridik fanlar doktori, professor, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist" faxriy unvoni sohibasi Esanova Zamira Normurotovna ushbu kafedraga rahbarlik qilgan. Professor Zamira Normurotovnadan Ustoz haqida so'ramasdan ketsak juda ko'plab muhim ma'lumotlardan "quruq" qolishimizni anglagan holda, ularning huzurlariga oshiqdik. Jonajon Ustozlari Shoakbar Shorustamovichni professor Zamira Normurotovna mana bunday xotirladilar: "Ustoz haqida juda ko'p gapirishim mumkin, albatta. Ularning har bir insonga o'rnak bo'lsa arziydigan fazilatlar juda ham ko'p edi. Ayniqsa, Ustozda kasbiga mas'uliyatlilik va fidoiylilik kuchli edi. Ular o'z xonalarida ertayu-kech ijod qilar, ilmga berilib ketganlaridan kechqurun soat 19.00-20.00 largacha o'z xonalarida qolib ketar edilar. Hatto, shanba kunlari ham kech ketar edilar. Biz yosh o'qituvchilar esa Ustozdan oldin ketishga istihola qilar edik. Ustoz menga "auditoriyaga kirganda talabalarni bilmaydi demang, talabani albatta o'qitaman, tarbiyalayman deb kiring", deb uqtirar, pedagoglik sir-asrorlarini o'rgatar edilar. Ustoz bizga farzandlari singari qarar edilar. Qishloqqa otanomizlarnikiga borib-kelishimiz uchun doimo sharoit qilib berganlar. Oilamizdagi yoshu-qarining ahvolini alohida so'rab chiqar edilar. Davlatjon Yulchiboyevich va

men har kuni kafedra ishlarini tugatib, Ustozga hisobot berar edik. Bu jarayon bizning hayot tarzimizga aylanib ulgurgan edi. Ustoz betob bo'lgan kezlarida ham kafedra ahvolini telefon orqali so'rab turar edilar. Ustozni hamisha sog'inamiz. Ular qalbimizning eng ulug' va pok qismidadir". Professor Zamira Normurotovna Ustoz Shoakbar Shorustamovichning xotirasini abadiylashtirish borasida kafedra tomonidan qilingan va qilinayotgan ishlarga ham to'xtalib o'tdilar. Jumladan, 2011-yil Ustozning oila a'zolari, shogirdlari va hamkasblari tashabbusi bilan Shoakbar Shorustamovich Shorametov 80 yillik yubileyiga bag'ishlangan anjuman tashkil etildi. Ushbu anjumanda Ustozning hamkasblari va shogirdlari so'z olib, Shoakbar Shorustamovich tomonidan mamlakatimiz huquqshunoslik sohasi rovojiga, professional yuridik kadrlarni tayyorlash borasida, respublikamizdagi protsessual qonunchilikni rivojlantirishga qo'shgan ulug' hissalarini e'tirof etildi, shogirdlar va hamkasblari tomonidan Ustoz yana bir bor yod olindi. Ushbu anjuman doirasida Ustoz Sh.Sh.Shoraxmetov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan "Sud-huquq islohotlari sharoitida fuqarolik sud ishlarini yuritishining dolzarb muammolari" mavzusida ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami nashr etildi. Bularning barchasi Ustozning yorqin xotirasi bo'lgan hurmat namunasidir.

Ustoz haqida ko'proq ma'lumotlar olish hissi bizni bu safar Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasiga yetaklab keldi. Bu yerda Ustoz Shoakbar Shorustamovichning shogirdlari yuridik fanlar doktori, professor, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi" unvoni sohibasi Mavluda Axatovna Axmedshayeva bilan uchrashdik. Professor Mavluda Axmedshayeva Ustoz Shoakbar Shorustamovichning nomlarini eshitishlari bilan barcha ishlarini bir chetga surib qo'yib, o'z Ustozlari haqidagi xotiralarni yodga oldilar: "Ustoz Shoakbar Shoakbarovich Shoraxmetovni eslaganimda dastavval o'ta madaniyatli, nihoyatda xushmuomala, doimo bekamu-ko'st kiyingan bir komil inson ko'z oldimizda namoyon bo'ladilar. Dars o'tishlarichi? Doimo yuzda chiroyli tabassum, har bir aytgan so'zlari, jumalari avval "qattiq chig'iriq" dan o'tgan holda ishlatiladi, bironta tasodifiy, shoshapisha aytilgan iborani topa olmaysiz. Darslarida yuqori ziyoli insonning ruhi hukmron. Darsda biron marta ovoz ko'tarish, stolni "mushtlash" holatlari aslo bo'lmagan. Bu buyuk insonning ovozlari doimo sokin, bir maromda, har qanday toifadagi hamsuhbatiga darhol ijobiy, tinchlantiruvchi ta'sir etadigan sehrli edi.

Shunday Ustozlardan ta'lim olganimiz bilan bir umr faxrlanish hissi barobarida, doimo katta mas'uliyatni ham his etib kelamiz, Ustozlarning munosib shogirdlari bo'laylik, deb intilamiz. Ustozimizning Oxiratlari obod bo'lsin!", deb faqatgina chin shogirdlarda uchratish mumkin bo'lgan sog'inchga yo'g'irilgan nigohlar bilan so'zlarini yakuniga yetkazdilar.

Qahraton qish kunlaridan insonlar olov atrofida qanday to'planishsa, haqiqiy ahlii ilmlar ham ilm atrofida xuddi shunday to'planishadi. Ustoz Shoakbar Shorustamovich

atrofida ham katta ilm ahillari to'planishar edi. Mana shu insonlardan biri Toshkent davlat yuridik universiteti "Biznes huquqi" kafedrası professor, yuridik fanlar doktori Ro`zinazarov Shuhrat Nuraliyevichdir. Professor Shuhrat Nuraliyevich Ustoz Shoakbar Shorustamovichni shunday yodga oldilar: "Garchi Ustoz bilan bir dargohda ishlash baxti menga nasib etmagan bo'lsa ham, Ustozning ko'p suhbatlarida bo'lganman. Ustoz Shoakbar Shorustamovich Shoraxmetov, Ikrom Bekenovich Zokirov, Hojiakbar Rahmonqulovich Rahmonqulov o'z davrining huquqshunoslik sohasidagi darg'alaridan bo'lgan. Ularni instutning bamisoli uch mustahkam ustuniga o'xshatishar edi. Ustoz Shoakbar Shorustamovich haqiqatdan tabiatan juda vazmin, salobatli, bosiq inson edilar. Qachon xonalariga borsam bir piyola issiq choy, mayiz, mag'iz kabi quruq mevalar bilan mehmon qilar edilar. Men 1995-yil Ustozning doktorlik dessertatsiyasi himoyasida qatnashganman. O'sha kezlari Oliy attesttsiya komissiyasida mas'ul kotib sifatida ishlar edim. Kasbim sabab Ustoz Shoakbar Shorustamovichning doktorlik ishlari bilan birinchilardan bo'lib tanishib chiqish baxtiga musharraf bo'lganman. Ustoz men uchun nafaqat pedagog olim sifatida, balki inson sifatida ham juda qadrlı. Ular ishlarini davom ettirish biz uchun yuksak sharafdir", - deb olis o'tmishga qilgan hayoliy sayohatimizni yakunladilar.

Biz Ustoz Shoakbar Shorustamovich haqida so'ragan insonimiz borki, ular xoh pedagog shogirdlaridan bo'lsin, xoh birga ishlagan hamkasblari, xoh dars bergan o'quvchilari barchalari yuzalarida sog'inch aralash tabassum bilan xuddi kechgı kunini yodga oladigan inson kabi xotirlashdi. Bir biridan qiziqarli voqealar, hikoyalarni eslashdi. Ustoz Shoakbar Shorustamovich o'zlaridan katta bir ilm maktabini, tolibi ilmlar uchun boy kutubxonani, hamkasblari uchun esa unutilmas, hazillarga boy xotiralarni qoldirdilar. Modomiki shunday ekan, Ustoz doim barhayot. Koinotdek cheksiz ilm sarhadlaridan o'z nurlari bilan biz shogirlar yo'lini yoritib kelmoqdalar...

Toshkent sh. 2025-yil 12-may